



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yaxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **G.I. Muxamedov**
Pedagogik ta'lim innovasion klaster: uzluksiz ta'limni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmi sifatida
- 8 **J.E. Usarov**
Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi – ta'lim uzluksizligining bosh omili sifatida
- 13 **D.O. Ximmataliyev**
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida individual yondashuv asosida kasbga yo'naltirish omillari
- 18 **U.I. Mahkamov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 24 **S.B. Qorayev**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 30 **G.O. Ernazarova**
Ta'lim va amaliy faoliyat uzluksizligi klaster yondashuv asosida ta'minlash metodologiyasi
- 36 **Y.N. Xodjamkulov**
Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning hamkorlik mexanizmlari
- 41 **M.O. Raxmanova**
Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi
- 47 **Ф.У. Қодирова**
Инклюзив таълимда узвийлик ва узлуksизликни таъминлашнинг педагогик-психологик механизmlari
- 53 **G.S. Abdullayeva**
Uzluksiz inklyziv ta'limni sifatli ta'minlashda axborot texnologiyalarning o'rni
- 59 **P. Мусулюмов**
Uzluksiz ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga nisbatan intizomsizlikka oid pedagogik va psixologik qarashlar
- 65 **I. Qodirov**
Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining taraqqiyot strategiyasi va uning amalga oshirish mexanizmlari
- 71 **J.F. Ravshanov**
Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida «4+2» shakli bo'cha amaliyot o'tashni tashkil etish
- 75 **Y.YU. Fayzueva**
Оптимизация специальных учреждений – как эффективный путь трансформации образования детей с ОВЗ от специального образования к инклюзивному
- 81 **Sh.A. Abduljalilova**
Maxsus pedagogikaga oid fanlarning o'qitilishda uzviylikni ta'minlashning o'ziga xosligi
- 87 **N.J. Eshnaev**
OTMlarda mobil mutaxassis tayyorlash – kasbiy yo'nalganlikning ijtimoiy-pedagogik kafolati ekanligi
- 93 **Sh.X. Kobilova**
Uzluksiz inklyziv ta'lim muammosini xorij tajribasi misolida o'rganish va uning pedagogik tahlili
- 99 **M.F. Qurbonova**
Uzluksiz ta'limda jarayonida zamonaviy yondashuvlar
- 104 **A.R. Raxmonov**
Uzluksiz ta'lim tizimida uslubiy yordam ko'rsatishning pedagogik mobilligi tizimidan foydalanish
- 110 **I.O. Sayfullayeva**
Bo'lajak logopedlarning uzviy kasbiy faoliyatini metodik tizimlashtirishda art texnologiyalarning o'rni
- 116 **O.S. Ishmatova**
Fonetik ritmika mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning nutqiy muammolarini bartaraf etish uzviyligini ta'minlash yo'llari
- 121 **N.A. Egamberdiyeva**
Autizm sindromli bolalar bilan yakka ishlashning uzviyligini ta'minlash omillari



TALABALARNING INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI – TA'LIM UZLUKSIZLIGINING BOSH OMILI SIFATIDA

J.E.USAROV,

pedagogika fanlari doktori, professor

Uzluksiz ta'limning asosiy vazifasi ijtimoiy va davlat ta'lim standartlari talablariga mos bo'lgan ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Pedagogik ta'lim innovasion klasteri muhiti, uning amaliy strategik modellari, baholash komponentlari hamda undagi talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini belgilash uzluksiz ta'limning asosiy omillari hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Ta'lim, uzluksiz ta'lim, ta'lim klasteri, individual ta'lim, ta'lim trayektoriyasi, baholash komponenti, pedagogik alyans.

Основная задача непрерывного образования направлена на формирование творческой, социально активной, духовно богатой личности, соответствующей требованиям социальных и государственных образовательных стандартов. Педагогическая образовательно-инновационная кластерная среда, ее практические стратегические модели, оценочные компоненты и определение индивидуальной образовательной траектории обучающихся в ней являются основными факторами непрерывного образования.

Ключевые слова. Образование, непрерывное образование, образовательный кластер, индивидуальное обучение, образовательная траектория, оценочный компонент, педагогический альянс.

The main objective of continuing education is to form a creative, socially active, spiritually rich personality that meets the requirements of social and state educational standards. The pedagogical education-innovation cluster environment, its practical strategic models, assessment components and the definition of the individual educational trajectory of the learners in it are the main factors of continuous education.


The key words. Education, continuing education, educational cluster; individual learning, educational trajectory, the evaluation component, and the teaching alliance.

Respublikamizda uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, uzluksiz ta'lim milliy modelning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimining ahamiyati ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsni shakllantirish va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zarurati bilan belgilanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi deganda, aniq ketma-ketlik bosqichida o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi hamda

bir-birini to'ldiruvchi ta'lim-tarbiya berish jarayoni nazarda tutiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat va ijro mazmuni amaldagi davlat ta'lim standartlari[1], turli darajadagi variativ ta'lim dasturlarining izchilligi va maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni o'z ichiga oladi. Ayni paytda ta'lim ustuvorligi (rivojlanish, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi), ta'limning insonparvarlashuvi (ehtiyojlar, qadriyatlar ustuvorligi) va ijtimoiylashuvi (estetik dunyoqarash, madaniyat va ijodiy fikrlash) kabi faoliyat ko'rsatish tamoyillariga shart- sharoitlar yaratish zarur bo'ladi. Bu borada mamalakatimiz ta'lim tizimida samarali ishlar olib borilmoqda va uning huquqiy-me'yoriy asolari yaratilgan. Xususan, yangi tahriridagi Konstitutsiyaning 50-moddasida uzluksiz ta'lim tizimini, uning har xil turlari va shakllarini, ya'ni davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash tartibi belgilab qo'yilgan[2].

Muammo ta'limning barcha bosqichlaridagi o'zaro izchillik va manfaatli hamkorlikning maqsadli yo'lga qo'yilmaganligi hamda mazkur bosqichlarining alohida vazirlik tasarrufidagi mustaqil faoliyatidir. Mazkur muammolar yechimi sifatida Chirchiq davlat pedagogika universiteti (CHDPU)da pedagogik ta'lim innovasion klasteri tartibini amaliyotga joriy etish ustuvor ilmiy tadqiqot mavzusi etib belgilangan. Pedagogik ta'lim innovasion klasterining ilmiy-nazariy asoslari, uning yangi innovasion tuzilma sifatidagi tavsifi va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari G'.I.Muxamedov, U.N.Xodjamqulov, Sh.I.Botirova, S.Toshtemirova kabi pedagog olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan[3]. Shuningdek, CHDPU tarkibidagi mavjud 10 ta fakultetga ta'lim klasteri ilmiy obyekt sifatida taqsimlab berilgan. Shulardan biri Pedagogik ta'lim innovasion klasterining pedagogik-psixologik asoslarini ilmiy talqin qilish hisoblanadi. Buning uchun PTIKning



pedagogik-psixologik asoslarining mazmunini ochib beruvchi quyidagi asosiy komponentlari belgilab olindi (1-rasm):

Mazkur komponentlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari uchun ta'lim subyektlarining aniq funksonal vazifalarini belgilab olish, ta'lim klasteri sharoitida ularning bosqichlari orasidagi manfaatli hamkorlik o'rnatilishiga sharoitlar yaratilishi, zaruriy tashkiliy-pedagogik aspektlarini aniqlash hamda ularni baholash masalalari ahamiyatli hisoblanadi.



Yuqorida qayd etilgan ta'lim klasterini komponentlarining o'zaro bog'liqligi va amaliy uzviyligini universitet hududida tashkil etilgani «Pedagogik alyans maydonchasi» asosida tushuntirish mumkin. Asosiy maqsad ta'lim klasteri subyektlari hisoblanadigan o'quvchi+otanolar+ta'lim muassasasi+ishlab chiqarish+tegishli mas'ullarning manfaatli hamkorligini ta'minlashdan iborat.


PTIKning komponenti maksadlari bilan birgalikda uning tamoyillari aniqlandi. Masalan, «Maktab laboratoriya» komponenti individual kasbiy rivojlanish dasturi asosida pedagogik faoliyatga ta'sir o'tkazishga qaratilgan «bugungi o'quvchi-ertaga talaba-pedagog», «mening bilganim hamma uchun» tamoyillari, «Inklyuziv ta'lim» komponentida nogiron talabalarga pedagogik faoliyat to'siqlarini bartaraf etish modellarini joriy etishga qaratilgan bo'lib, «Ta'lim -ijtimoiy extiyoj, unda imkoniyatlar tenglashadi» tamoyili amal qiladi, «Aralash ta'lim» komponentida mustaqil ta'lim tamoyillari, reglament va mutaxassislikga kirishni amaliy uyg'unlashtirish ko'zda tutilgan bo'lib, «mustaqil faoliyat ilm kafolati», «vaqt taqsimoti-naqd unumdorligi» tamoyiliga amal qilinadi, «Talabalar bandligi» komponentida esa, nafaqat bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash balki 1-kurslarga qabul qilingan talabalardan tortib 4-kurs talabalariga qadar barchasining turli to'garaklar, kasbiy faoliyatga erta tayyorlashga yo'naltirilgan talabalar loyihalaridagi ishtiroki orqali talabalarning bandligi «harakat-faoliyat belgisi», «kechagi metod bugun yangi emas» tamoyili asosida ta'minlanadi.

Alyans – ma'lum bir vaqtda umumiy maqsadlarga erishish uchun klaster subektlari o'rtasidagi mafaatli hamkorlikka asoslangan individual faoliyat. Shu ma'noda «Alyans» deganda pedagogik ta'lim innovasion klasterining amaliy strategiyasi namunasi sifatida, uzluksiz ta'limning samarali faoliyat natijalarini tushinish kerak bo'ladi.

«Pedagogik alyans maydonchasi»da pedagogik ta'lim innovasion klasteri doirasida talabalarining pedagogik-psixologik prortetini (metodist, nazariyachi, ishlab chiqarish, ta'lim xizmatlari) aniqlash asosida ularni kelajak faoliyatga maqsadli yo'naltirishga qaratilgan (2-rasm). Bu orqali esa, talabalarni individual yo'naltirish muhitini yaratadi.

Pedagogik ta'lim innovasion klasterining taraqqiyot strategiyasi modellarini o'zida mujassam etgan maydoncha planshetlar asosida tashkil qilingan bo'lib,

unda bevosita maktabgacha, umumiy o'rta, professional, oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasidagi mavjud muammolarga ilmiy tadqiqot faoliyati orqali yechim yo'llari asoslangan. Bugungi kun pedagogikasining asosiy tendensiyalaridan biri bu, talabalarning ta'lim olish samaradorligi ularning ehtiyojlariga mos ravishda o'qishi, o'rganishi, izlanishi uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq. Talabani dastlabki o'quv faoliyati yillaridanoq ularni kasbiy faoliyatga amaliy yo'naltirish talabaning iqtidori, ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqi individual yondashuv asosida rivojlanib borishiga asos bo'ladi.



Talabalarning o'zaro mos o'zlashtirishi, o'quv materiallarini o'zlashtirish imkoniyatlari, ijtimoiy va genetik moyilliklarini ham inobatga olish ularni individual yondashuv tartibi asosida yo'naltirishga zamin yaratadi. Ya'ni, talabalarning darsdan tashqari izlanishi, ijodiy ishlari, bo'sh vaqtini unumli tashkil etish bilan birgalikda olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Talabalarning o'qishini mustaqil loyihalash, asosiy va chuqurlashtirilgan darajada o'quv fanlarini o'zlashtirish imkonini beruvchi moslashuvchan individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish uchun sharoit yaratishi bugungi kunning muhim talabi ekanligini inobatga olsak, o'quv davrining dastlabki rejasini tuzish, o'quv natijalarini izchil olish va to'plash, erishilgan ta'lim natijalarining shaxsiy-ahamiyatli maqsadlarga muvofiqqligini/nomuvofiqqligini aniqlash asosida talabalarning kelajak faoliyatini boshqarishning naqadar muhim ekanligi yanada oydinlashadi.



Ta'limda muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarning bilim olishdagi hamkorligi, auditoriyada qulaylik, xatolar ustida ishlash emas, balki ularning oldini olish, o'quv materiali mazmunining ketma-ketligi, izchilligi, hamma uchun vazifalarning yetariligi tabaqalashtirilgan holda darsni tashkil etishni taqozo etadi. Ta'limning individual trayektoriyasi o'quvchining ta'limdagi shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqaradi. Bu bilan talabalarning bir necha huquq va imkoniyatlari ta'minlanadi. Masalan, har bir o'quv fanida individual ma'no va maqsadlarni tanlash yoki aniqlash, asosiy tushunchalar va toifalarni shaxsiy talqin qilish va tushunish huquqi, individual ta'lim dasturlarini tuzish, ta'limning individual sur'atini, o'quv muammolarini hal qilish shakllari va usullarini, o'z faoliyatini nazorat qilish, aks ettirish va o'z-o'zini baholash usullarini tanlash huquqini beradi.

Individual ta'lim trayektoriyasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish maxsus metodologiya va texnologiyani talab qiladi [4]. Zamonaviy didaktikada bu muammoni hal qilish uchun odatda ikkita qarama-qarshi usul taklif etiladi, ularning har biri individual yondashuv deb ataladi. Birinchi usul – tabaqalashtirilgan ta'lim bo'lib, unga ko'ra har bir talabaga individual yondashish, u o'rganayotgan materialni murakkablik, diqqat-e'tibor darajasiga qarab farqlash taklif etiladi. Buning uchun talabalar odatda guruhlariga (turlari bo'yicha: qobiliyatli, o'rtacha, orqada qolgan) yoki darajalarga (yuqori, o'rtacha, past) bo'linadi. Ikkinchi usul har bir talaba o'zi o'rganadigan ta'lim sohasiga nisbatan o'z ta'lim yo'lini tanlashni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir talabaga barcha o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun o'z ta'lim trayektoriyasini yaratish imkoniyati beriladi.

Xulosa o'rinda fanga oid mavzularning mantig'ini, uning tuzilishi va mazmunli asoslarini saqlashga qat'iy belgilangan hajmdagi fundamental ta'lim ob'yektlari va tegishli muammolar yordamida erishiladi, bu individual ta'lim trayektoriyasi bilan birga talabalarning standart ta'lim darajasiga erishishini ta'minlaydi. Demak, individual trayektoriyani tuzish, bu – jarayonida talaba uchun eng muhimi, uning imkoniyatlari, qobiliyatlari, istiqbollari, qiziqishlarini, u yoki bu materialni o'rganishda rejalashtirilgan natijaga erishish uchun qilmochi bo'lgan sa'y-harakatlarini baholashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil-19 oktyabrdagi 35-2021-son buyrug'i.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
3. G'.I.Muxamedov, U.N.Xo'jamqulov «Pedagogik ta'lim innovasion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif». Uslubiy qo'llanma, Chirchiq-2019 y.
4. J.E.Usarov, L.G.Babaxodjayeva, G.Sharipova. Pedagogik kompetentlik/O'quv qo'llanma. Chirchiq-2021 y.